



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 328 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiylatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	



UDK: 657.1

KAPITAL INVESTITSİYALARGA DOIR AXBOROTLARNI XUSUSIY KAPITAL TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

**Boronov Bobur Farxodovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti professori v.b., DSc
ORCID: 0000-0002-2597-4755

**Muxammadiev Zarrux Umarovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti doktoranti, PhD
ORCID: 0009-0003-3870-2497

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalarda amalga oshiriladigan kapital investitsiyalarning moliyaviy hisobot shakllarida, xususan, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirilishining amaldagi holati, ularga doir mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili, shuningdek, ushbu moliyaviy hisobot shaklini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, kapital investitsiyalar, kapital investitsiyalar hisobi, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.

Abstract: In this article, the current state of reflection of capital investments made in enterprises in financial reporting forms, in particular, in the report on private capital, the analysis of scientific research conducted by scientists of our country, and the improvement of this form of financial reporting based on international standards of financial reporting, etc.

Key words: digital economy, green economy, capital investment, capital investment accounting, private equity reporting.

Аннотация: В данной статье рассматривается современное состояние отражения капитальных вложений, произведенных на предприятиях, в формах финансовой отчетности, в частности, в отчете о частном капитале, анализ научных исследований, проводимых учеными нашей страны, а также совершенствование этой формы финансовой отчетности. отчетность на основе международных стандартов финансовой отчетности и т.д.

Ключевые слова: цифровая экономика, зеленая экономика, капитальные вложения, учет капитальных вложений, отчет о собственном капитале.

KIRISH

Mamlakatimizda 2024-yilning 1-avgustida qayta ishlab chiqilgan 23-sonli "Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish" BHMSda korxonalarni qayta tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar,



xususan, qayta tashkil etish jarayonida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari, korxona aktivlari va majburiyatlarini baholashga oid natijalarni moliyaviy hisobotda aks ettirish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu yo'riqnomada quyidagi norma keltirilgan: "Yakuniy moliyaviy hisobot O'zbekiston Respublikasining 'Buxgalteriya hisobi to'g'risida'gi Qonuni, Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq, tashkilot ilgari qabul qilgan yillik moliyaviy hisobot shakllari hajmida, hisobot yili boshidan to Reestrda yangi vujudga kelgan tashkilotlar haqidagi yozuv kiritilgan vaqtga qadar bo'lgan davr uchun tuziladi" ¹.

Bundan ko'rinadiki, korxonalarning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ushbu xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobot shakllarida korxona aktivlari, majburiyatlari va o'z mablag'lari manbalari kabi buxgalteriya hisobi elementlari to'liq ochib berilishi lozim. Aynan shu vazifalar raqamli va yashil iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

Korxonalarga kiritilgan kapital investitsiyalarning hisobot shakllarida aks ettirilishida, ularning faqat aktiv sifatidagi xususiyati inobatga olingan holda ma'lumotlar taqdim etilgan. Bu esa mamlakatimizda amalda qo'llanilayotgan reglamentlashtirilgan hisobot shakllarida keltirilgan axborotlarning nafillik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Korxonalar buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotida mavjud bo'lgan bunday kamchiliklar, bugungi raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy jarayonlar xususiyatidan kelib chiqib, kapital investitsiyalarga oid moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirishni dolzarb vazifa sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.²

Mamlakatimizda amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarda korxonalarda moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishdan asosiy maqsad sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: "investitsiya va kreditlar berish bo'yicha qarorlar qabul qilish; tashkilotning kelgusi pul oqimini baholash; tashkilotga ishonib topshirilgan resurslar munosabati bilan uning resurslari va majburiyatlarini baholash; boshqaruv organlarining faoliyatini baholash." Bugungi raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida ayniqsa, pul oqimlari harakati bo'yicha axborotlar, xususan, kapital investitsiyalarga oid pul mablag'lari kirimi va chiqimi to'g'risidagi zaruriy ma'lumotlarning moliyaviy hisobotda yorqin aks ettirilishi eng dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida yuqorida keltirilgan masalalarga oid mavjud ilmiy izlanishlar tahlil qilindi. Mamlakatimiz olimlaridan A. B. Akramov moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo'lib, u "Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobot" shaklini tavsiya etgan. U, shuningdek, xususiy kapitalni moliyaviy hisobot elementi sifatida xalqaro standartlarga transformatsiya qilish maqsadida 8300 – "Aksiyadorlik (pay) kapitali", 8400 – "Emission (daromad) kapitali" ishchi schyotlarini kiritish zarurligini asoslagan hamda buxgalteriya yozuvlarini korxonalarning amaliy misollari asosida ochib bergan.³

Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha tadqiqot olib borgan A. N. Abdullaevning izlanishida "Nodavlat ta'lim tashkilotlarida bepul ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlarni 'Xususiy kapital to'g'risida'gi hisobot shakliga quyidagi mazmundagi 095-satr – 'Soliq imtiyozlari hisobiga ko'rsatilgan bepul ta'lim xizmatlarining maqsadli tushumlarga ta'siri'ni kiritish orqali xususiy kapital tarkibidagi o'zgarishlarni tahlil qilish" asoslab berilgan.⁴

Q. H. Berdievning ta'kidlashicha, "Xususiy kapital tarkibiy elementlarining ulushi so'nggi besh yilda o'zgarib bormoqda." Olim o'z tadqiqotida xususiy kapital tarkibida korxona ta'sischilari investitsiyalari, korxonada topilgan mablag'lar va haqqoniy qiymatni aniqlash uchun pul mablag'lari bo'yicha guruhlariga tasniflangan holda ularning hisobi va tahlilini amalga oshirgan.⁵

Q. O. O'rishevning "Yog'-moy ishlab chiqarish korxonalarida xususiy kapital hisobini takomillashtirish" nomli tadqiqot ishida esa yog'-moy sanoati korxonalarida xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning nazariy asoslari, tasnifiy yondashuvlari va ularni takomillashtirish bo'yicha tahlillar keltirilgan.⁶

Xalqaro standartlardan farqli o'laroq, milliy hisob tizimimizda 14-sonli "Xususiy kapital to'g'risida hisobot" BHMS ishlab chiqilgan bo'lib, moliyaviy hisobotning ushbu shakli korxonalarda hisobot davrida yuz bergan

1 23-son BХМС "Қайта ташкил этишни амалга оширишда молиявий ҳисоботни шакллантириш" // АВ томонидан 01.08.2024 й. 3540-сон билан рўйхатга олинган.

2 Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 12 июлда рўйхатдан ўтказилган. 3530-сон.

3 Акромов А.Б. Халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботни тузиш ва унинг таҳлилини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати. -Т.: 2022, 58 б.

4 Абдуллаев А.Н. Нодавлат таълим ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати. -Т.: 2022, 56 б.

5 Бердиев Қ.Ҳ. Хусусий капиталнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати. -Т.: 2023, 58 б.

6 Ўришев Қ.О. Ёғ-мoy ишлаб чиқариш корхоналарида хусусий капитал ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. -Т.: 2020.



o'z mablag'lari manbalari bilan bog'liq buxgalteriya hisobi axborotlarini yoritib berishga mo'ljallangan. Mamlakatimizda ishlab chiqilgan yo'riqnomalarda ushbu hisobot shaklini tuzishdan asosiy maqsad "xususiy kapitalning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan holati hamda hisobot davri davomida uning tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni yoritish" ekani ko'rsatilgan.⁷

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda kapital investitsiyalarga oid axborotlarni aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatuv, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot ishida moliyaviy hisobotning 5-shakli hisoblangan "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishimizga asosiy sabab shundaki, bugungi kunda korxonalarda tuzilayotgan va taqdim etilayotgan ushbu hisobot shaklida kapital investitsiyalarning ichki moliyalashtirish manbalari bo'yicha axborotlar mujassamlashgan bo'lib, ular ichki investorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu borada xorijiy iqtisodchi olim N. A. Jdankina ta'kidlaganidek: "Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari deganda, kapital qo'yilmalar jarayonini ular hisobidan amalga oshirish imkonini beruvchi mablag'lar va pul oqimlari tushuniladi. Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotlarda moliyalashtirish manbalari ko'pincha kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish usullari bilan belgilanadi".⁸

Bunday moliyalashtirish manbalari ichki va tashqi guruhlariga tasniflanadi. Ichki moliyalashtirish manbalariga doir axborotlar esa moliyaviy hisobotning 5-shakli – "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"da yoritiladi.

Tadqiqotimiz davomida korxonalarda hisobot davrida taqdim etilgan "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"da kapital investitsiyalarga oid axborotlar bilan tanishib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval. Korxonada xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda kapital investitsiyalarga doir aks ettiriladigan axborotlar⁹.

Кўрсаткичлар номи	Сатр коди	Устав капи-тали	Қўшил-ган капи-тал	Резерв капи-тали	Таксим-лан-маган фойда (Қоплан-маган зарар)	Сотиб олинган хусусий акция-лар	Мақсад-ли тушум-лар ва бошқа-лар	Жами
Йил бошидаги қолдиқ	010							
Қимматли қоғозлар эмиссияси	020							
Узоқ муддатли активларни қайта баҳолаш	030							
Устав капиталини шакллантиришда пайдо бўлган валюта курси фарқлари	040							
Резерв капиталига ажратмалар	050							
Жорий йилнинг тақсимланмаган фойдаси (зарари)	060							
Текинга олинган мол-мулк	070							
Мақсадли фойдаланиш учун олинган маблағлар	080							
Ҳисобланган дивидендлар	090							
Хусусий капитал шаклланишининг бошқа манбалари	100							
Йил охиридаги қолдиқ	110							
Хусусий капиталнинг кўпайиши (+) ёки камайиши (-)	120							

7 14-сон БҲМС "Хусусий капитал тўғрисидаги ҳисобот" // АВ томонидан 07.04.2004 й. 1335-сон билан рўйхатга олинган.

8 Жданкина Н.А. Учёт капитальных вложений и источников их финансирования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Самара: 2012. 19-с.

9 Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.



Ushbu jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar korxonalar tomonidan amalga oshirilgan kapital investitsiyalarga doir axborotlarni yoritishga mo'ljallangan bo'lib, "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"da ichki moliyalashtirish manbalarini aks ettiradi.

Shuningdek, tadqiqotlarimiz davomida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda ichki moliyalashtirish manbalarini yanada kengroq va atroflicha yoritib beruvchi "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" shakliga ilovalarni ishlab chiqdik (2-jadval):

2-jadval. Kapital investitsiyalarning ichki moliyalashtirish manbalari to'g'risida axborot.

Ko'rsatkichlar nomi	Rezerv kapitali			Maqsadli tushumlar			Kelgusi davr xarajatlarini va t'ulovlari uchun xazinalar	Jami
	Kapital investitsiyalarini qayta baholash uchun fond	Kapital investitsiyalar uchun rezerv kapitali	Kapital investitsiyalar uchun tekiniga olingan mulk	Kapital investitsiyalarini amalga oshirish uchun grantlar	Kapital investitsiyalarini amalga oshirish uchun subsidiyalari	Kapital investitsiyalarini amalga oshirish uchun solik imtiyozlari	Kapital investitsiyalar b'ijcha kelgusi davr xarajatlarini va t'ulovlari uchun xazinalar	
Amalga oshirilgan kapital investitsiyalar, shundan:								
Kurilish ishlari b'ijcha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar								
Asosiy vositalar b'ijcha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar								
Nomoddiy aktivlar b'ijcha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar								
Biologik aktivlar b'ijcha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar								
Erti obodonlashtirish b'ijcha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar								
Molliaviy ijara shartnomasi b'ijcha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar								
Investitsiaviy mulk b'ijcha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar								
Bo'shka aktivlar b'ijcha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar								

Biz tomonidan ishlab chiqilgan mazkur hisobot shakllari xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda kapital investitsiyalarga doir axborotlarni "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"da aks ettirish uslubiyatini takomillashtirishga muayyan darajada xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari asosida korxonalar tomonidan taqdim etilayotgan "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" yuzasidan bir qator xulosalarga kelindi. Xususan, amaldagi tartibda mazkur hisobot bo'yicha ishlab chiqilgan satrlar kapital investitsiyalarga doir axborotlarni, ayniqsa korxonalarda amalga oshirilgan kapital investitsiyalarni ularning moliyalashtirish manbalari bo'yicha yetarlicha shaffof aks ettirayotgani kuzatilmaydi. Chunki hisobot shaklida ko'rsatilgan "Rezerv kapitali" va "Maqsadli tushumlar" bo'yicha axborotlar, aynan qaysi yo'nalish natijasida va qanday tarzda yuzaga kelganini yaqqol ochib bermayapti.

Ushbu ko'rsatkichlar, aslida, korxonalarda amalga oshirilgan kapital investitsiyalarning ichki moliyalashtirish manbalariga oid axborotlarni o'zida mujassam etib, moliyaviy axborot foydalanuvchilari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari, ayniqsa bugungi raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida, korxonalar tomonidan taqdim etilayotgan "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"ning nafillik darajasini yanada oshirish maqsadida ushbu hisobot shakli bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishni zaruriyat sifatida ko'rsatmoqda. Shularni inobatga olgan holda, "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"da kapital investitsiyalarga oid axborotlarni yoritishga mo'ljallangan yangi hisobot shakllarini hamda mavjud hisobot shakllariga ilovalarni ishlab chiqish lozim.

Bu kabi hisobot shakllari va ularning ilovalari korxonalarda kapital investitsiyalarga doir axborotlarni aniq va ishonchli tarzda aks ettirishga, xorijiy va mahalliy investorlarni zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. 23-сон БХМС “Қайта ташкил этишни амалга оширишда молиявий ҳисоботни шакллантириш” // АВ томонидан 2024 йил 1 августда 3540-сон билан рўйхатдан ўтказилган.
2. Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 12 июлда 3530-сон билан рўйхатдан ўтказилган.
3. Акрамов А.Б. Халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботни тузиш ва унинг таҳлилини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 58 б.
4. Абдуллаев А.Н. Нодавлат таълим ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 56 б.
5. Бердиев Қ.Ҳ. Хусусий капиталнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2023. – 58 б.
6. Ўришев Қ.О. Ёғ-мой ишлаб чиқариш корхоналарида хусусий капитал ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020.
7. 14-сон БХМС “Хусусий капитал тўғрисидаги ҳисобот” // АВ томонидан 2004 йил 7 апрелда 1335-сон билан рўйхатдан ўтказилган.
8. Жданкина Н.А. Учёт капитальных вложений и источников их финансирования. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Самара, 2012. – 19 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>